

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MULKCHILIK TO'G'RISIDA

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsizdir. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo'lishiga va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishiga qonun kafolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi mulkdorga qarashli bo'lgan mol-mulkni saqlash va ko'paytirib borish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi.

(muqaddima O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

1-modda. Mulkiy huquq

1. O'zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi.

2. Mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin.

3. Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

4. Mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishga haqlidir.

Fuqaroning mehnatidan foydalanishga asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanligidan qat'iy nazar, fuqaro O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va kafolatlar bilan ta'minlanadi.

5. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

(1-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Mulkchilik to'g'risidagi qonunchilik

1. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikka doir munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasida mulkka doir munosabatlar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan ham tartibga solib turiladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. Mulkiy huquq obyektlari

(3-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

1. Quyidagilar mulk obyektlaridir:

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikroxejalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar; insonning mehnat qilish qobiliyati.

(3-moddaning birinchi bandi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi 2022-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1994-y., 11-12-son, 285-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Ixtirolar, kashfiyotlar, fan, adabiyot, san'at asarlari, axborot, ilmiy g'oyalar, texnik ishlanmalar va aqliy ijodning boshqa obyektlarini yaratish hamda ulardan foydalanish xususidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

3. Tarix va madaniyat yodgorliklariga mulkiy huquqni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan belgilab beriladi.

(3-moddaning 2 va 3-bandlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4. Mol-mulkdan xo'jalikda foydalanish natijalari (mahsulot va daromadlar), qonunlar yoki shartnomada boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, shu mol-mulk egasiga tegishlidir.

Oldingi tahrirga qarang.

4-modda. Mulkiy huquq subyektlari

(4-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoalar, ularning birlashmalari, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va o'zga birlashmalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, xalq deputatlarining barcha bo'g'indagi Kengashlari hamda ular vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir. Turli yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar aynan bitta mulkning subyektlari bo'lishi mumkin.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

5-modda. Mulk shakllari

(5-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

1. O'zbekiston Respublikasida mulk quyidagi shakllarda bo'ladi:

xususiy mulk;

shirkat (jamoat) mulki;

ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (kommunal mulkdan) iborat davlat mulki;

aralash mulk;

boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki.

2. O'zbekiston Respublikasi barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlaydi.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

6-modda. Haq undirib olishni mulkdorning mol-mulkiga qaratish

(6-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

1. Yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha haq undirib olish mulk huquqi, to'la xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida unga tegishli bo'lgan mol-mulkka qaratilishi mumkin.

Mulkdor o'zi vujudga keltirgan yuridik shaxslarning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, bu yuridik shaxslar esa mulkdorning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

2. Jismoniy shaxslar o'z majburiyatlari bo'yicha mulkiy huquq asosida o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulk bilan javob beradilar.

Jismoniy shaxslarning qarz beruvchilar da'volariga binoan haq undirish tarzida olib qo'yilishi mumkin bo'lmagan mol-mulkni ro'yxati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

II BO'LIM. XUSUSIY MULK

7-modda. Xususiy mulk

1. Xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida va (yoki) yollanma mehnatni qo'llashda shaxsan bevosita ishtirok etishiga asoslanishi mumkin.

2. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor o'z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

3. Xususiy mulk fuqarolarning yollanib ishlashdan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan daromadlari hamda kredit muassasalariga qo'ygan mablag'laridan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlardan, meros bo'yicha va amaldagi qonun hujjatlarida man etilmagan o'zga asoslarga muvofiq mol-mulkka ega bo'lishlari hisobiga hosil etiladi va ko'payib boradi. Fuqarolarning xususiy mulki ularning davlat mulkini xususiylashtirishda ishtirok etishi hisobidan vujudga keltirilishiga ham yo'l qo'yiladi.

4. Fuqaro o'zining mehnat qilish qobiliyati – ishchi kuchini tasarruf etishda mutlaq huquqqa ega. U bu huquqni mustaqil tarzda yoki shartnoma (bitim, ahdlashuv) asosida amalga oshiradi.

5. Uy-joy kooperativining, uy-joy qurish, dala hovli, garaj kooperativi yoki boshqa kooperativning a'zosi foydalanish uchun o'ziga berib qo'yilgan kvartira, dala hovli, garaj yoxud boshqa imorat yoki bino uchun pay badalini batamom to'lagach shu mol-mulkka nisbatan mulkiy huquqni qo'lga kiritadi.

Oldingi tahrirga qarang.

“Toshuyjoyjamg'armabank”ning egasi ko'rsatilgan obligatsiyalariga ega bo'lgan shaxs imtiyozli kreditni to'liq uzsa yoki sotib olinayotgan kvartira qiymatini to'liq to'lasa, ana shu kvartiraning huquqini qo'lga kiritadi;

(7-modda beshinchi bandi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 357-I-son Qonuniga muvofiq ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)

Davlat va idoraviy uy-joy fondining uyidan turar joyni ijaraga olgan ijarachi va uning oila a'zolari mulkdordan tegishli kvartira yoki uyni (uyni bir qismini) sotib olishga haqlidir.

Mazkur mol-mulkni mulk qilib sotib olganidan keyin fuqaro uni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishga — sotishga, vasiyat qilib qoldirishga, ijaraga berishga, undan garov sifatida foydalanishga, unga doir qonunga zid bo'lmagan boshqa bitimlar tuzishga haqlidir.

6. Xususiy mulk o'z mol-mulkini sarmoya sifatida o'rtaga qo'yish, davlat, kooperativ va o'zga korxonalarining mol-mulkini, ijaraga olingan mol-mulkni sotib olish, mol-mulkni kim oshdi savdosida yoki qonunda yo'l qo'yiladigan o'zga asoslarda xarid etish asnosida yuzaga keladi.

Oldingi tahrirga qarang.

7. Xususiy mulk bo'lishi mumkin bo'lmagan obyektlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladi.

(7-moddaning 7-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

8. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda hamda shartlarda yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy mulki qilib berilishi mumkin.

(7-moddaning 8-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(II-bo'lim O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

III BO'LIM. SHIRKAT (JAMOA) MULKI

(III-bo'limning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

8-modda. Umumiy qoidalar

1. Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek kooperativlarning, ijara, jamoa korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o'z ichiga oladi.

2. Kollektiv mulkning hosil bo'lishi va ko'payib borishi davlat korxonalarini ijaraga berish, mehnatkashlar kollektivlariga olingan daromadlardan davlat mol-mulkini sotib olish uchun foydalanish imkonini berish bilan, davlat korxonalarini aksiyadorlar jamiyatlariga aylantirish bilan, fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkini kooperativlar va boshqa xo'jalik jamiyatlari hamda shirkatlarini tuzish uchun ixtiyoriy birlashtirish bilan ta'minlanadi.

3. Jamoa mulkining turli shakllariga berilmaydigan mol-mulkning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi belgilaydi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonunining 10, 11-bandlari tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

9-modda. Oilaviy mulk

Oila a'zolarining mulki oilaviy mulkdir. Bu mulk oila a'zolarining ehtiyojlarini qondirish, uy-ro'zg'or va yordamchi xo'jalikni yuritish uchun hamda daromad olish maqsadida qonunda ruxsat berilgan, o'zga faoliyat uchun kerakli ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini, yaratilgan mahsulotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Oilaviy mulk huquqi o'z subyektlarining har biriga aynan tegishli bo'lgan xususiy mulkdan iborat bo'lishi mumkin.

(9-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonunining 10, 12-bandlari tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

10-modda. Mahalla mulki

1. Ijtimoiy o'z-o'zini boshqarishning boshlang'ich bo'g'inlari — mahallalar egalik qiladigan, foydalaniladigan va tasarruf etadigan mol-mulk, mahalla aholisining birgalikdagi mehnat faoliyati yoki ularning mushtarak daromadlari, shuningdek mazkur mol-mulkdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishdan kelgan tushumlar, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari, moddiy va xayriya yo'sinidagi yordamlari, xalq deputatlari mahalliy Sovetlari beradigan moddiy va moliyaviy resurslar asosida vujudga keltirilgan mol-mulkdan iborat.

2. Mahallada istiqomat qiluvchi aholi mahalla mulkining subyektidir. O'zi saylab qo'ygan organlar — mahalla mulkini to'la xo'jalik yuritish asosida egallaydi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

(10-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonunining 10, 13-bandlari tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

11-modda. Kooperativ mulk

1. Xo'jalikni birgalikda yuritish yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanish uchun a'zolik asosida ixtiyoriy birlashgan fuqarolarning birgalikdagi mulki — kooperativ mulkdir.

2. Kooperativ mulk uning a'zolari bergan pul yohud boshqa mol-mulk shaklidagi badallar, ular ishlab chiqarilgan mahsulot va uni sotishdan hamda kooperativ ustavidan nazarda tutilgan boshqa faoliyatdan keladigan daromad hisobiga tashkil topadi va ko'payib boradi.

3. Kooperativ tugatilgan taqdirda budget, banklar va boshqa qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulk kooperativ a'zolari o'rtasida ustavda nazarda tutilgan tartibda taqsimlanadi.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonunining 10, 14-bandlari tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

12-modda. Ijaraga olingan korxonalar mulki

(12-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan daromadlar va ijaraga olingan korxonalar mablag'i hisobidan qo'lga kiritilgan boshqa mol-mulk shu korxonalar kollektivining mulkidir.

Oldingi tahrirga qarang.

Ijaraga olingan korxonalar mehnat kollektivi a'zolarining kollektiv ishlarini idora qilishda ishtirok etish hamda foyda (daromad)ni taqsimlash tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining ijara to'g'risidagi qonunchiligi asosida belgilanadi.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13-modda. Kollektiv korxonalarining mulki

(13-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

1. Kollektiv korxonalarining mulki davlat korxonalarining butun mol-mulki mehnat kollektivi a'zolarining mulkiga o'tgan, ijaraga olingan mol-mulk sotib olingan yoki qonunda ko'zda tutilgan boshqa usullar bilan mol-mulk qo'lga kiritilgan taqdirda vujudga keladi.

(13-moddaning birinchi bandi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 851—XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 235-modda)

Kollektiv korxonalarining mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadlar kollektivning umumiy mulkidir.

2. Kollektiv korxonalarining mol-mulki tarkibida uning xodimlari qo'shgan hissalar belgilab qo'yiladi. Bunday hissa tarkibiga xodimlarning kollektiv korxonasi vujudga kelishiga asos bo'lgan davlat korxonasi yoki ijaraga olingan korxonalar mulkiga qo'shgan umumiy summasi, shuningdek mazkur korxonalar vujudga keltirilganidan keyin xodim korxonalar mol-mulkini ko'paytirishga qo'shgan ulushlari kiradi.

Xodimning mol-mulki ko'paytirishga qo'shgan ulushi miqdori korxonalar faoliyatida o'z mehnati bilan ishtirok etganiga qarab aniqlanadi hamda xo'jalik faoliyati natijalariga asoslanib shu ulushga mehnat kollektivi belgilaydigan miqdorda protsentlar ajratiladi va to'lanadi.

Korxonalar bilan mehnat munosabatlarini to'xtatgan xodimga, shuningdek vafot etgan xodimning vorislariga qo'shilgan hissasining qiymati beriladi.

Kollektiv korxonasi tugatilgan taqdirda hissaning qiymati xodimlarga (ularning vorislariga) budget, banklar bilan va boshqa qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulkdan to'lanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

14-modda. Xo'jalik jamiyati va shirkatining mulki

1. Yuridik shaxs hisoblangan xo'jalik jamiyati va shirkatining mulki qatnashchilarning qo'shgan hissasi hisobidan, xo'jalik faoliyati natijasida olingan hamda qonunda man etilmagan boshqa asoslarda ular tomonidan qo'lga kiritilgan mol-mulkdan hosil bo'ladi.